



Methodology for teaching English in the higher education system using innovative technologies

Nodira KUSHIYEVA¹

Uzbekistan State World Languages University

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2025

Received in revised form

15 May 2025

Accepted 15 June 2025

Available online

25 June 2025

Keywords:

innovative technologies,
English language,
higher education,
digital learning,
soft skills,
communicative competence.

ABSTRACT

This article explores the relevance of using innovative technologies in English language teaching within the higher education system. In the context of global integration and the expansion of digital learning tools, the effectiveness of implementing online platforms, mobile applications, artificial intelligence tools, and virtual environments in language instruction is analyzed. Special emphasis is placed on the role of these technologies in developing students' soft skills. Through the analysis of scholarly literature and modern pedagogical practices, the study demonstrates that innovative technologies serve as key instruments in designing individualized, multimodal, and activity-based approaches to language learning.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss3-pp169-173>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Oliy ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'qitish metodikasi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

innovatsion texnologiyalar,
ingliz tili,
oliy ta'lim,
raqamli ta'lim,
yumshoq ko'nikmalar,
kommunikativ
kompetensiya.

Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning dolzarbligi yoritiladi. Global integratsiya, raqamli ta'lim vositalarining kengayishi va chet tilini egallashning yangi metodologik yondashuvlari kontekstida raqamli platformalar, mobil ilovalar, sun'iy intellekt vositalari va virtual muhitlar asosida dars jarayonlarini tashkil etishning samarador jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu texnologiyalarning talabalar "yumshoq ko'nikmalar"ini shakllantirishdagi o'rni asoslab beriladi. Ilmiy adabiyotlar tahlili va zamonaviy pedagogik amaliyotlar natijasida

¹ Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor, Uzbekistan State World Languages University.
E-mail: nodira.kushieva@mail.ru

innovatsion texnologiyalar til o'rganishning individual, multimodal va faoliyatga yo'naltirilgan shakllarini yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi isbotlanadi.

Методика обучения с использованием инновационных технологий при преподавании английского языка в системе высшего образования

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

инновационные технологии, английский язык, высшее образование, цифровое обучение, гибкие навыки, коммуникативная компетенция.

В статье рассматривается актуальность применения инновационных технологий в преподавании английского языка в системе высшего образования. В условиях глобальной интеграции и стремительного развития цифровых образовательных платформ, мобильных приложений, инструментов искусственного интеллекта и виртуальных сред анализируются возможности эффективного внедрения этих средств в учебный процесс. Особое внимание уделено их роли в формировании «гибких навыков» (soft skills) у студентов. На основе анализа научной литературы и передового педагогического опыта обосновывается, что инновационные технологии становятся важным фактором в создании индивидуализированного, мультимодального и деятельностно-ориентированного обучения иностранным языкам.

Ingliz tilini iqtisod ta'lim yo'nalishida o'qitishda CEFR (Umumiy Yevropa til kompetensiyalari tavsiyasi) tizimi asosida tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirish, til o'rganish jarayonining receptiv jihatini rivojlantirish bilan bir qatorda, talabalarda ijtimoiy, kommunikativ va kasbiy kontekstda muhim o'rin tutuvchi yumshoq ko'nikmalar – soft skills'ni ham bosqichma-bosqich takomillashtirishga xizmat qiladi. CEFR B2 darajasida tinglab tushunish talabalarning kundalik hamda kasbiy sohada uchraydigan murakkab, leksik jihatdan boy, strukturaviy jihatdan murakkab va mantiqiy jihatdan izchil matnlarni tushunishiga yo'naltirilgan. Iqtisodiy sohada bu turdagi tinglov materiallariga intervyular, iqtisodiy yangiliklar, seminar yoki konferensiya chiqishlari, podkastlar, moliyaviy tahlillar va kompaniya hisobotlariga oid eshittirishlar kiradi.

Tinglab tushunish orqali o'rganiladigan ma'lumotlar real hayotdagi professional muloqotga asoslangan bo'lishi kerak. Masalan, talabalar "World Economic Forum"da berilgan nutqni yoki "Bloomberg Business News" podkastini tinglar ekan, u nafaqat axborotni eshitish, balki uni tahlil qilish, asosiy fikrni ajratish, muhim fakt va raqamlarni ajratib olish, hamda eshitilgan ma'lumotni shaxsiy pozitsiya bilan bog'lash faoliyatini amalga oshiradi. Bu esa tanqidiy fikrlash, diqqatni jamlash, axborotni tahlil qilish, fikr bildirish, faol tinglash, eshitgan axborotni qayta ishlov berish, baholash va xulosa chiqarish kabi soft skills ko'nikmalarini shakllantiradi.

Tinglab tushunish mashg'ulotlari CEFR mezonlariga mos tarzda tashkil etilganda, talabalar nafaqat umumiy mazmunni tushunishga, balki nutqning asosiy tezislari, sabab-oqibat munosabatlari, nuqtai nazar farqlari, muammoli nuqtalar, dalillar va xulosalarni aniqlashga yo'naltiriladi. Ayniqsa, iqtisodiy yo'nalishdagi tinglov matnlari ixtisoslashgan

terminlar, grafik tahlillarni og'zaki bayon qilish, moliyaviy muammolarni izohlash kabi elementlarni o'z ichiga oladi. Talaba bunday materialni tinglar ekan, u faol eshitish orqali muammoni tahlil qiladi, asosiy fikrni aniqlaydi, muallif pozitsiyasini anglaydi, shuningdek, mavzuga oid savollar asosida o'zining shaxsiy mulohazasini shakllantiradi. Bu faoliyat esa uni passiv eshituvchidan faol tahlil qiluvchi shaxsga aylantiradi.

Metodik yondashuvlarda tinglab tushunish mashqlarini soft skills bilan integratsiya qilish uchun quyidagi usullar qo'llaniladi: tinglov asosida tahliliy savollarga javob berish, eshitilgan matn asosida guruhli muhokama tashkil qilish, eshitilgan materialga asoslanib esse yoki rezyume yozish, matn asosida prezentatsiya tayyorlash, audio intervyularni skriptlash va rolga kirib ijro qilish, tinglov asosida qaror qabul qilishga doir mashqlar ishlab chiqish. Bunday mashg'ulotlar orqali talaba auditoriyani diqqat bilan eshitish, o'z fikrini axborot asosida bildirish, muhokama qilish, savollarga javob qaytarish, eshitgan axborotga tanqidiy yondashish kabi kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarni egallaydi.

Tinglab tushunishga oid mashqlarni iqtisodiy kontentga moslashtirish orqali talabalar "market trend analysis", "economic forecast", "digital finance" kabi mavzular bo'yicha murakkab nutqlarni tushunishga o'rganadi. Bu esa ularni xalqaro konferensiyalarda, xorijiy ma'ruzalarda, onlayn kurslarda va kasbiy podkastlarda faol ishtirok etish uchun zarur bo'lgan til kompetensiyasiga tayyorlaydi. Ayniqsa, CEFR B2 darajasi doirasida talabadan faqatgina matnni tushunish emas, balki eshitgan ma'lumot asosida mustaqil fikr bildirishi, pozitsiya shakllantirishi, baholashi va tahlil qilishi kutiladi. Bu jarayon esa o'z-o'zidan ijodiy fikrlash, liderlik (masalan, tinglangan iqtisodiy vaziyatga yechim taklif qilish), muloqotga kirishuvchanlik va faol ishtirokchilik kabi soft skills tarkibiy qismlarini yuzaga chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda, CEFR tizimida tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirish faqat til o'rganish vositasi bo'lib qolmay, balki talabaning kasbiy fikrlashini, ma'lumotga nisbatan ongli munosabatini, tanqidiy va ijodiy yondashuvini, faol kommunikatsiyasini rivojlantiruvchi kompleks ta'limiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, ingliz tilini o'qitish orqali xalqaro iqtisodiy maydon talablariga mos ravishda faol eshituvchi va tahlil qiluvchi mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati kengayadi.

Globalizatsiya, raqamli transformatsiya va ta'lim texnologiyalaridagi jadal rivojlanish zamonaviy oliy ta'lim tizimida chet tillarini, xususan ingliz tilini o'qitishda yangicha yondashuv va vositalarni talab qilmoqda. Ayniqsa, xalqaro integratsiya sharoitida ingliz tilini samarali o'qitish faqat an'anaviy metodlarga tayanib qolmasdan, balki innovatsion texnologiyalar yordamida talabalarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish, ularning kommunikativ va professional ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Shu bois, innovatsion texnologiyalardan foydalanish zamonaviy chet tilini o'qitish metodikasining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Innovatsion texnologiyalar deganda faqat axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini emas, balki raqamli o'quv muhitlari, sun'iy intellekt vositalari, ta'limiy platformalar, interaktiv dasturlar, onlayn hamkorlik maydonchalari, shuningdek, o'yinlashtirish (gamification), immersiv texnologiyalar (virtual va kengaytirilgan haqiqat), mobil ilovalar, raqamli portfellar kabi integrativ metodlarni ham nazarda tutish kerak. Ushbu vositalarning ingliz tilini o'qitishda joriy qilinishi ta'lim jarayonini faollashtiradi, o'quvchi talabalarni subyekt sifatida shakllantiradi va ularning o'z-o'zini anglash, ijodiy fikrlash, tanqidiy mulohaza yuritish, axborotni saralash, taqdim etish, tahlil qilish kabi yumshoq ko'nikmalarini rivojlantiradi [1].

Xususan, oliy ta'limda ingliz tilini o'qitishda Moodle, Google Classroom, Edmodo, Microsoft Teams kabi platformalar yordamida mustaqil o'rganish, topshiriqlarni bajarish va fikr almashish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu vositalar orqali talabalarga moslashuvchan, talabani shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan, multimodal ta'lim muhiti yaratiladi. Masalan, mobil ilovalar (Duolingo, Quizlet, Memrise, BBC Learning English) o'rganilgan so'zlarni mustahkamlash, talaffuzni yaxshilash, grammatika bo'yicha mini-mashqlar bajarish imkonini beradi, bu esa tilni kundalik amaliyotga yaqinlashtiradi va o'quv motivatsiyasini oshiradi [2].

Innovatsion texnologiyalar yordamida tashkil etilgan o'quv jarayonida talabalar turli formatdagi topshiriqlar (video asosida tahlil, podkast sharhi, vebinarlar asosida yozma mulohazalar, raqamli kollajlar yaratish, elektron forumlarda ishtirok etish) orqali o'z fikrlarini muloqotga moslashtirish, rasmiy va norasmiy uslublarda nutqni erkin ifodalash, mantiqiy mulohaza yuritish va interaktiv muloqotga kirishish kabi kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantiradi. Shu bilan birga, bu jarayon til o'rganishda tanqidiy yondashuvni, refleksiv fikrni, global ijtimoiy-kasbiy kontekstni anglashni, o'z shaxsiy ta'lim strategiyasini shakllantirishni ta'minlaydi [3].

Raqamli texnologiyalar bilan boyitilgan darslarda ta'lim interaktivlik, multimodal stimullar (video, grafik, animatsiya, testlar) orqali talabani bir necha sezgi orqali bilimni qabul qilishi, anglab yetishi va tahlil qilishi bilan ajralib turadi. Bu o'z navbatida kognitiv, emotsional va metakognitiv faoliyatlarni uyg'unlashtiradi. Talabalar sun'iy intellekt vositalaridan (masalan, ChatGPT, Grammarly) foydalanish orqali yozma nutqni tahrirlash, savollarga javob izlash, g'oyalarni boyitish, xatolarni aniqlash orqali o'z yozma va og'zaki nutqini takomillashtira oladi [4]. Virtual sinf texnologiyalari yordamida esa chet ellik mutaxassislar bilan onlayn muloqot, til muhitiga yaqin simulyatsiyalar orqali autentik til tajribasi hosil qilinadi, bu esa til o'rganishni sun'iy vazifadan real kommunikatsiyaga aylantiradi [5].

Shuningdek, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan ingliz tili mashg'ulotlari pandemiyadan keyingi davrda ta'limning barqarorligini ta'minlovchi, ta'limga universal kirish imkoniyatini yaratuvchi va o'quvchining faol, mas'ul, o'z o'quv faoliyatini boshqaruvchi subyekt sifatida shakllanishini qo'llab-quvvatlovchi asosiy mexanizmlardan biri bo'lib qoldi. Bu esa bugungi kunda talab qilinayotgan 21-asr ko'nikmalari – moslashuvchanlik, raqamli savodxonlik, mustaqil o'rganish, hamkorlikda ishlash, ijodkorlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi kompetensiyalarning ingliz tilini o'rganish orqali chuqurlashtirishini ta'minlaydi [6].

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim tizimida ingliz tilini innovatsion texnologiyalar asosida o'qitish an'anaviy o'quv jarayonini individuallashtirilgan, differensial, multimodal va integratsiyalashgan ta'lim muhiti asosida qayta tashkil etadi. Bu esa talabalarning til kompetensiyalarini chuqurlashtirish, o'z-o'zini anglashi va kasbiy ehtiyojlariga mos ko'nikmalarni egallash imkonini kengaytiradi. Shu bois, innovatsion texnologiyalarni ingliz tili ta'limiga strategik asosda tatbiq etish, ularni kontekstga moslashtirish va samarali didaktik modellar asosida qo'llash bugungi kunda zamonaviy pedagogik faoliyatning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kukulska-Hulme, A. (2012). Language learning defined by time and place: A framework for next generation designs. In: Mobile learning: Piloting and small scale implementation. London: Routledge.

2. Godwin-Jones, R. (2015). Emerging technologies: The evolving roles of language teachers: Trained coders, local researchers, global citizens. *Language Learning & Technology*, 19(1), 10–22.
3. Pegrum, M. (2014). *Mobile learning: Languages, literacies and cultures*. London: Palgrave Macmillan.
4. Beatty, K. (2010). *Teaching and researching computer-assisted language learning*. Harlow: Longman.
5. Hampel, R., & Stickler, U. (2012). The use of videoconferencing to support multimodal interaction in an online language classroom. *ReCALL*, 24(2), 116–137.
6. OECD (2021). *21st Century Skills and Competences for New Millennium Learners in OECD Countries*. Paris: OECD Publishing.